

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA “MODDIY-RASMLI-TIMSOLLI” YONDASHUV ORQALI HAYOTIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sabirova Nasiba Ergashevna,
filologiya fanlari doktori, professor.
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida «Moddiy–Rasmlı–Timsolli» yondashuvdan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ushbu yondashuvning o‘quvchılarda XXI asr ko‘nikmalari, xususan, kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, kommunikativ kompetensiya hamda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, moddiy, vizual va timsolli vositalar asosida matnni o‘rganish, badiiy asarlarni chuqur anglash, obraz va ramzlarni tahlil qilish hamda dars jarayonini interfaol tashkil etishga xizmat qiluvchi metod va usullar misollar asosida yoritilgan. Maqolada mazkur yondashuvning o‘quvchılarning bilish faolligi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, adabiyot ta’limi, innovatsion pedagogika, XXI asr ko‘nikmalari, kompetensiyaviy yondashuv, Moddiy–Rasmlı–Timsolli yondashuv, vizual ta’lim, timsol, ramz, obraz, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, hayotiy ko‘nikmalar, badiiy tafakkur, matn tahlili.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы применения материально-визуально-символического подхода в преподавании родного языка и литературы. Проанализирована роль данного подхода в формировании у обучающихся компетенций XXI века, в частности креативного мышления, критического анализа, коммуникативной компетентности и жизненных навыков. Кроме того, представлены методы и приёмы изучения художественных текстов с использованием материальных, визуальных и символических средств, способствующие более глубокому пониманию литературных произведений, интерпретации художественных образов и символов, а также организации интерактивного образовательного процесса. Обоснованы педагогические возможности данного подхода в развитии познавательной активности, воображения, самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: обучение родному языку, литературное образование, инновационная педагогика, навыки XXI века, компетентностный подход, материально-визуально-символический подход, визуальное обучение, символ, символический образ, художественный образ, креативное мышление, критическое мышление, интерактивные методы обучения, жизненные навыки, художественное мышление, анализ художественного текста.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of applying the Material–Visual–Symbolic approach in teaching the native language and literature. It analyzes the significance of this approach in developing learners’ 21st-century skills, particularly creative thinking, critical analysis, communicative competence, and life skills. The paper also describes methods and techniques for studying literary texts through material, visual, and symbolic means, facilitating a deeper understanding of literary works, the interpretation of images and symbols, and the organization of interactive learning activities. Furthermore, the pedagogical potential of this approach in enhancing students’ cognitive activity, imagination, independent thinking, and

creativity is substantiated.

Keywords: native language education, literature education, innovative pedagogy, 21st-century skills, competency-based approach, Material–Visual–Symbolic approach, visual learning, symbol, symbolic image, literary image, creative thinking, critical thinking, interactive teaching methods, life skills, artistic thinking, literary text analysis.

Kirish. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ta'lim tizimining kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashuvi ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish metodikasiga yangicha qarashlarni talab etmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularda tanqidiy va kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash hamda hayotiy vaziyatlarda bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, matnni chuqur anglash va obrazli fikrlashini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, «Moddiy–Rasmlı–Timsolli» yondashuv o'quvchilarning sezgi, idrok va tafakkur faoliyatini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali adabiy matnning mazmuni nafaqat o'qish va tahlil qilish, balki vizual obrazlar, moddiy vositalar hamda ramziy talqinlar asosida o'zlashtiriladi. Natijada o'quvchilarda badiiy tafakkur, tasavvur, estetik did va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Asosiy qism. Ona tili va adabiyot darslarida «Moddiy–Rasmlı–Timsolli» texnika va texnologiyaning shiddatli taraqqiyoti ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatning asosiy talablari – XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash, o'quvchilarning kreativ va amaliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda innovatsion

«Moddiy-Rasmlı-Timsolli» yondashuvidan samarali foydalanishning afzalliklari va o'quv jarayoniga ta'siri hech kimga sir emas. XXI asr ko'nikmalari insonlarning zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va xulq-atvorlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va global muammolarni hal qilish zarurati natijasida shakllangan. Quyida XXI asr ko'nikmalarining asosiy turlari va ularning ahamiyati keltirilgan:

1.O'rganish ko'nikmalari - yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar (4K) bo'lib, ular shaxsning yangi bilim, mahorat va tajribalarni o'zlashtirish, ulardan samarali foydalanish va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatidir. XXI asrda o'rganish ko'nikmalari insonning shaxsiy va professional hayotida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2.Ha yotiy ko'nikmalar - hayotimizni muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar (Moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, o'z-o'zini boshqarish, yetakchilik) bo'lib, bu shaxsning kundalik hayotidagi muammolarini samarali hal qilish, boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, mustaqil hayot kechirish va o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va qobiliyatlar majmuasidir. XXI asrda hayotiy ko'nikmalar, ayniqsa, o'zgaruvchan dunyo sharoitida insonning barqarorligi va muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

3. Ilmiy savodxonlik ko'nikmalari- media va raqamli resurslar orqali yangi bilimlarni egallash va qo'llashda yordam beradigan ko'nikmalar (axborot, media va texnologiya savodxonligi)dir.

«MODDIY-RASMLI-TIMSOLLI» yondashuv -murakkab tushunchalarni ko'rgazmali vositalar, rasm, diagrammalar, timsollar va boshqa tasviriy materiallar orqali taqdim etish bo'lib, bu ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, tasavvurlarini kengaytirish va matnni chuqurroq anglash uchun ishlatiladigan pedagogik metodlardan biridir.

Ushbu yondashuvda materiallarning tasviriy, simvolik va amaliy jihatlari asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Moddiy yondashuv: Bu yondashuvda materialning narsalarga oid (moddiy) jihatlari e'tiborga olinadi. Ya'ni, o'quvchilarga matnni, hikoya yoki she'rni tasavvur qilishda yordam berish uchun tasvirlar, jismoniy predmetlar, vizual vositalar yoki amaliy tajribalar qo'llaniladi.

Misol: O'quvchilarga she'r yoki hikoya haqida gapirganda, muallim ularga mavzuga oid tasvirlar, rasmlar yoki videolarni ko'rsatishi mumkin. Masalan, «Tinchlik» yoki «Tabiat» mavzulari bo'yicha tasviriy materiallar yordamida o'quvchilar o'z tasavvurlarini shakllantiradilar.

Moddiy yondashuv asosidagi amaliy topshiriqlar:

a) Hikoyani maket orqali ifodalash. Topshiriq: Guruh bo'lib ishlash orqali asardagi voqealarni moddiy maket yoki diorama ko'rinishida ifodalash. Masalan:

o «Qutadg'u bilig» dostonining saroy yoki shahar tasvirini yaratish.

o «O'tkan kunlar» romani bo'yicha Toshkentning eski mahallasini maket ko'rinishida ifodalash.

b) Qahramonlarning atributlari. Topshiriq: Qahramonlar bilan bog'liq bo'lgan moddiy narsalarni yaratish. Masalan:

o Alpomishning qilichi yoki qalqoni (qog'ozdan tayyorlash yoki rasm chizish orqali).

o Layli va Majnun sevgisini ramzlovchi moddiy buyumlar.

c) Hodisalarning xaritasini tuzish. Topshiriq: Asardagi voqealar joylashuvini moddiy xaritada belgilash. Masalan:

o Qahramonning harakat yo'nalishlarini ko'rsatuvchi xarita chizish.

2. Rasmi yondashuvda, tasviriy materiallar (rasmlar, diagrammalar, kartalar, grafikalarining) yordamida adabiy asarlarning mazmunini o'rganish va tushunish osonlashtiriladi. Bu yondashuvda o'quvchilarga ko'rish orqali tushunish va tasavvurlarini kengaytirish imkoniyati beriladi.

Misol: Agar o'quvchilar «O'rmon» mavzusidagi asarni o'rganayotgan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilarga o'rmonning turli rasmlarini, o'simliklar va hayvonlarning tasvirlarini ko'rsatishi mumkin. Bu, o'quvchilarga asarda tasvirlanayotgan muhit va kayfiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Timsolli yondashuv:

Bu yondashuvda simvollar, timsollar va ramzlar orqali adabiy asarlarni tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Timsolli yondashuv o'quvchilarga matndagi chuqur ma'nolarni anglashda yordam beradi, ya'ni biror obraz yoki so'zning ramziy yoki timsolli ma'nosini tushunishga yordam beradi.

Misol: She'rda yoki hikoyada biror predmet yoki obraz (masalan, qush) ramziy ma'noga ega bo'lishi mumkin — qush ozodlikni, tabiiylikni yoki ba'zi holatlarda o'zgarishlarni bildirishi mumkin. O'quvchilar bu ramzlar orqali asarlarni chuqurroq tahlil qilishni o'rganadilar.

Moddiy-rasmi-timsolli yondashuvning afzalliklari:

Tasavvurlarni rivojlantiradi: O'quvchilarga matnni tushunish uchun vizual materiallar yordamida tasavvurlarini kengaytiradi.

Yodda saqlashni yaxshilaydi: Rasm va simvollar orqali tushunilgan ma'lumotlar o'quvchilarning yodida uzoq vaqt qoladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantiradi: Timsollar va simvollarni tahlil qilish orqali o'quvchilar kreativ va chuqur fikrlashni rivojlantiradilar.

Ta'limda amaliyotni qo'llash: Moddiy va rasmi yondashuv orqali adabiyot va tilni real hayotga yaqinlashtirish mumkin.

Moddiy-rasmi-timsolli yondashuv ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning matnni tushunishi va uning chuqur ma'nolarini anglashda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv o'quvchilarni

ijodiy fikrlashga, tasavvur qilishga va adabiy asarlarni chuqurroq o'rganishga undaydi.

Rasmiy yondashuv asosida "Fikrla, izohla, taqqosla" usuli yordamida rasmlarga mos so'z birikmasi, qo'shma so'z, maqol, ibora va tasviriy ifodalar topish, ularning izohi va muqobilini izlash orqali o'quvchilar bu birliklarni farqlaydi va eslab qoladi. Masalan: xursand-rasmning izohi; og'zi qulog'ida-ibora; sinonimi-boshi ko'kka yetgan, boshi osmonda; antonimi- qovog'idan qor yog'adigan.

Adabiyot darslarida rasmiy yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tushunchalarni yaxshiroq anglash va o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Quyida rasmiy yondashuvni darslarda samarali qo'llash bo'yicha ba'zi tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

1. Matnni vizuallashtirish

- Illyustratsiyalar yaratish: O'quvchilar adabiy matn asosida rasm chizishlari yoki internetdagi rasmlardan foydalanib, voqealar, qahramonlar va muhitni tasvirlashlari mumkin. Bu ularning matnni chuqur tushunishiga yordam beradi.

- Qahramonlar xarakteristikasi: Har bir qahramonni tasvirlash uchun portretlar chizish yoki grafiklar tuzish.

2. Komikslardan foydalanish

- Matn mazmunini qisqa dialoglar va tasvirlar orqali tushuntirish uchun komikslar yaratish. Masalan, hikoya yoki dostonning asosiy qismlarini qahramonlar orqali komik tarzda ifodalash.

- Bu usul, ayniqsa, yosh o'quvchilar uchun tushunishni osonlashtiradi.

3. Vaqt chizig'i va xaritalar

- Hikoyaning voqealar ketma-ketligini yoki qahramonlarning harakat yo'nalishlarini tasvirlash uchun vaqt chizig'i yoki xaritalar chizish.

- Masalan, «Alpomish» dostoni bo'yicha Alpomishning safar xaritasini tuzish.

4. Rasmiy prezentatsiyalar

- Darslarda taqdimot uchun rasm va grafiklardan foydalanish. Masalan, she'r yoki hikoya mazmunini rasmlar bilan uyg'unlashtirish orqali tushuntirish.

- O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'zlari tayyorlagan rasmiy taqdimotlarni namoyish qilishlari mumkin.

5. Rasm asosida muhokama

- Hikoya yoki she'rga mos rasmlar tanlab, o'quvchilarga savollar berish. Masalan, rasmini ko'rsatib: "Bu tasvir qaysi voqeani aks ettiradi?" yoki "Bu qahramonning his-tuyg'ulari qanday?" kabi savollar bilan muhokama tashkil etish.

6. Vizual hikoya yaratish

- O'quvchilarga o'z hikoyalarini faqat rasmlar yordamida yaratish vazifasini berish. Keyin esa bu hikoyani so'zlab berishlari so'raladi.

- Bu ijodiy fikrlashni va adabiy tahlilni rivojlantiradi.

7. Adabiy asarlarni jonlantirish

- O'quvchilarga rasmlar asosida qisqa animatsiyalar yoki sahna ko'rinishlari tayyorlash imkoniyatini berish. Masalan, ertakni vizual animatsiya shaklida ifodalash.

Foydasi:

- Tushunishni chuqurlashtirish: O'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq idrok etadilar.
- Ijodiy fikrlash: Tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- Faollikni oshirish: Darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi.
- Hamkorlikni rag'batlantirish: Guruh ishlari orqali o'quvchilar birgalikda ishlashni o'rganadilar.

Bu yondashuvni qo'llashda "Men yozuvchiman", "Qahramonlar mening tasavvurimda"

usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol muloqotni ta'minlab, dars samaradorligini oshiradi.



Adabiyot darslarida timsolli yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, asarlardagi yashirin ma'nolarni ochib berish va ularga tanqidiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod yordamida asarlarning chuqur mazmuni va ma'naviy g'oyalari o'quvchilarga yaqinroq va tushunarliroq bo'ladi.

1. Timsollarni aniqlash va tahlil qilish
 - Asardagi asosiy timsollarni aniqlash: Dars davomida qahramonlar, voqealar, yoki muhitga xos timsollarni topish va ularni muhokama qilish. Masalan:
 - o «Alpomish» dostoni: Alpomishning o'zi botirlik va vatanparvarlik timsoli.
 - o Cho'lponning she'rlari: Quyosh — umid va yangilanish timsoli.
 - o "Chinor" romanida chinor daraxti- manguilik ramzi, xalq ramzi.
 - O'quvchilardan: "Bu timsol nimani anglatadi?" yoki "Bu timsol hozirgi davrda qanday ahamiyatga ega?" kabi savollarni muhokama qilishni talab qilish.
2. Timsollarni vizualizatsiya qilish
 - Timsollarni rasmlar, diagrammalar yoki jadvallar orqali tasvirlash. Masalan:
 - o Quyosh — hayot va yangilanish.
 - o To'lqin — o'zgaruvchanlik va kuch.
 - O'quvchilarga asar mazmunidan ilhomlangan holda o'z timsollarini chizish vazifasini berish.
3. Timsollarning zamonaviy talqini
 - O'quvchilardan timsollarni zamonaviy hayot bilan bog'lashni so'rash. Masalan:
 - o An'anaviy asardagi "tog'" timsoli (ulug'lik va bardosh)ni hozirgi shaxsiy fazilatlar yoki ijtimoiy hodisalar bilan solishtirish.
 - o Zamonaviy adabiy asarlardagi yangi timsollarni tahlil qilish.
4. Qahramonlar va timsollar o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish
 - Har bir qahramon qanday timsollarni ifoda etishini o'rganish. Masalan:
 - o Otabek (Abdulla Qodiriy): Qurbonlik va muhabbat timsoli.
 - o Ot (dostonlarda): Erkinlik va sadoqat timsoli.
 - o It ("Qorako'z majnun"): Vafodorlik timsoli
 - Bu qahramonlar va timsollar o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish.

5. She'riy va badiiy timsollar bilan ishlash

- She'rlardagi metaforik va timsoliy iboralarni tahlil qilish. Masalan:
 - o "Oy" timsolining turli adabiyotlarda turlicha talqin etilishini o'rganish.
 - o Bu iboralarning poetik tuyg'uni qanday oshirishini muhokama qilish.

6. Timsollarni hayotiy tajribalar bilan bog'lash

• O'quvchilardan o'z hayotlarida uchragan hodisalar yoki holatlarni timsollar yordamida tushuntirishni so'rash. Masalan:

- o Daraxt — sabr va bardosh timsoli sifatida.
- o Daryo — vaqt yoki hayot oqimi sifatida.

7. Timsollar asosida ijodiy vazifalar

• Insho yoki esse yozish: "Sevimli timsolim va uning hayotdagi ahamiyati" mavzusida yozish.

• Spektakl yoki rolli o'yinlar tashkil etish: Qahramonlarni timsoliy xususiyatlari orqali jonlantirish.

Timsolli yondashuvning foydalari:

• Mazmunni chuqur tushunish: Asarlarning sirli va yashirin tomonlarini o'quvchilar o'zlari kashf etadilar.

• Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: O'quvchilar yangi ma'nolarni izlashga va talqin qilishga undaydi.

• Hayotiy dars olish: Timsollarning ma'nolarini hayot bilan bog'lash orqali ularning ma'naviy o'sishi ta'minlanadi.

• Estetik zavq: Timsollarning poetik va badiiy go'zalligi darsni boyitadi.

Adabiyot darslarida timsolli yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat asarni, balki uning falsafiy va ma'naviy jihatlarini ham chuqurroq anglab olishadi.

Darsning refleksiya bosqichida «Men nimani o'rgandim?» savoli o'quvchilarning dars davomida olgan bilimlarini tahlil qilishlari va anglashlari uchun juda muhim. Ushbu savol orqali ular o'z bilimlarini mustahkamlash, tushunmagan jihatlarini aniqlash va shaxsiy fikrlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Refleksiya bosqichida «Men nimani o'rgandim?» savolidan foydalanishda "Yozma javoblar" usulidan foydalaniladi:

• O'quvchilarga maxsus qog'oz yoki daftarlariga savolga qisqacha javob yozishni so'rash. Masalan:

- o Darsdan olgan uchta asosiy fikrni yozish.
- o Qaysi qism sizga eng qiziq bo'ldi va nima uchun?
- o "Men dars davomida o'rgandim, lekin hali quyidagilarni bilishni istayman..." kabi jumlani yakunlash.
- o "Bugungi mavzu hayotda qanday foydali bo'lishi mumkin?"

Bu yondashuv darsni samarali yakunlashga va o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Ona tili va adabiyot darslarida "Moddiy-Rasmli-Timsolli" yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga, badiiy matnni ko'p qirrali idrok etishiga hamda hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat va ramziy tafakkur uyg'unligida tashkil etish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moddiy vositalar, vizual materiallar va timsolli tahlil metodlaridan kompleks foydalanish o'quvchilarning

tasavvurini kengaytiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, nutq madaniyatini boyitadi hamda badiiy-estetik didini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu yondashuv hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish kabi XXI asr kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bois «Moddiy–Rasmi–Timsolli» yondashuvni ona tili va adabiyot fanlari metodikasiga tizimli ravishda joriy etish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda raqamli ta’lim resurslari bilan integratsiyalash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodni turli sinf bosqichlariga moslashtirish, elektron didaktik materiallar yaratish va uning samaradorligini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash istiqboldagi ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Адабиётшунослик луғати / Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.
 2. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov “Adabiyot” 6-sinf uchun darslik, Toshkent-2022.
 3. S. Olimov, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov “Adabiyot” 8-sinf uchun darslik – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
 4. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. “Adabiyot” 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.:”O‘zbekiston” NMIU, 2019.
 5. Sh. A. Yuldoshova “Badiiy asarda motiv, mavzu va timsol o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar” Journal of Innovation, Creativity and Art, Vol. 3, No. 10, 2024
 6. N.F.Saydalixodjaeva “Pedagogik texnologiyalar” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2021
 7. Yo‘ldoshev Q., Yusupov J. Badiiy tahlil asoslari. - Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2008.
- Internet saytlari:
1. <http://www.kutubxona .uz>
 2. <http://www.literature .uz>
 3. <http://www.ziynet .uz>